



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IKKI SOMATIK KOMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Kurbonova Marguba Sotvoldiyevna

Andijon davlat chet tillari instituti

kmarguba2020@gmail.com; Tel: 88 988 64 80

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-159>

ARTICLE INFO

Received: 17th February 2023

Accepted: 26th February 2023

Online: 27th February 2023

KEY WORDS

Somatizm, somatik ibora, frazeologik birlik, frazeologiya, somatik frazeologizm, leksema, lingvomadaniy, ibora, komponent, ikki somatik komponentli ibora.

ABSTRACT

Ushbu maqola ikki somatik komponentli frazeologik birliklarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ingliz va o'zbek tillarida bir ibora tarkibida inson ikki tana azolari nomlari bilan ifodalangan frazeologik birliklar haqida ma'lumot beradi va bu bizga ingliz va o'zbek tillarida ularning asosiy omillarini ochib berish imkonini beradi. Shuningdek ular yuzasidan tilshunos olimlar olib borgan ilmiy izlanishlar o'rganib chiqilib, ingliz va o'zbek tillaridagi ikki somatik komponentli frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili bir qancha misollar bilan tahlilga tortiladi. Ushbu ishning maqsadi ikki somatik komponentli frazeologik birliklarni o'rganish hamda ularning ingliz va o'zbek tillarida o'xshash va farqli tomonlarini topib, tahlil qilishdan iborat.

KIRISH. Leksikologiyaning eng qiziqarli bo'limlaridan biri bo'lgan frazeologiya, har qanday xalqning o'ziga xos lug'atini, so'z boyligini ko'rsatib beradi. Frazeologiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "phrasis" - ibora, ifoda va "logiya" - o'rganaman, yani ibora va ifodalarni o'rganaman degan ma'noni anglatadi. Ibora ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan lug'aviy birlikdir. U so'z kabi lug'aviy ma'no anglatadi. So'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan til birligi esa frazeologik birlik deyiladi.

Jahon tillar frazeologiya maydonida somatik frazeologizmning o'rne alohida ahamiyat kasb etadi. Somatizm grek tilidan olingan bo'lib, "soma" - "tana" ma'nosini anglatadi. Frazeologik birliklarning insoniyat va uning hayotiy faoliyati va inson tana a'zolari bilan uzviy bog'liq va bunday tematik guruhlariga birikkan frazeologizmlarni somatik frazeologiyalar deyiladi. Birinchi bo'lib eston tili frazeologizmlarni o'rgangan olim F.Vakk somatik frazeologiyalar haqida ta'kidlagan. U somatik frazeologizmlarni faqat odamlarni tasvirleydigan, odamlar va hayvonlarni tasvirleydigan va faqat hayvonlarni tasvirleydigan guruhlariga ajratgan [6]. Ushbu maqolamizning asosiy maqsadi esa ingliz va o'zbek tillaridagi ikki somatik komponentli frazeologizmlar va ularning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz olimi Sh. Balli asos soldi. Keyinchalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyur frazeologizmni til birligi sifatida ta'kidlagan. Amerikalik tilshunos olim Uolles L.Cheys esa frazeologik birliklar haqida, til



rivojining ma'lum bosqichi yuzaga kelgan o'zgarishlar yangi ma'nolarni yaratadi, ularni ifodalashda alohida qoliplar shart bo'lmay, balki biror eski, ya'ni tilda avvaldan mavjud bo'lgan materiallardan foydalaniladi, degan edi. Bu sohada rus tilshunoslarining o'rni ham beqiyosdir. Jumladan A.Peshkovskiy, V.Vinogradov, B.Larin, N.Shanskiy, A.Smirnitskiy, A.Kunin, V.Jukov, I.Arangeliskiy, A.I.Molotkov kabilar frazeologizmlar haqida ish olib bordilar. Shuningdek, S.K.Kesenbayev, F.R.Ahmedjanova, R.E.Jaykasaova, R.M.Tayeve, G.A.Bayramova, Ch.G.Sayfullin, S.Navro'zboyeva va S.I.Muratov kabilar tomonidan frazeologizmlar haqida ma'lumot berilgan va tahlil qilingan. O'zbek tilshunoslari Sh.Raxmatullayev, B.Yo'ldoshev, Y.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlarning ilmiy ishlarida o'zbek frazeologiyalar haqida bayon qilingani va tahlil qilinganini ko'rishimiz mumkin [9].

So'ngi yillarda somatik frazeologizmlar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi bo'lib kelmoqda. Somatik frazeologizmlarda har bir xalqning turmush tarzi, tajribasi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar va an'analari o'z aksini topgan bo'ladi. Jahon somatizmlar qatnashgan iboralarni o'rganishda qiyosiy tahlil usuli rivoj topgan bo'lib, bu yo'nalishdagi ishlar soni salmoqlidir. Lenka Chiklova rus va chex tilidagi "qo'l" somatizmi ishtirok etgan iboralarni qiyosiy tahlil qiladi. Muallif "qo'l" somatizmi ishtirok etgan iboralarni 4 guruhga ajratadi:

- 1) ikki tilda ham mavjud ma'no jihatidan sinonim qo'l somatizmi qatnashgan iboralar;
- 2) faqat bir tilda qo'l somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa somatizm ishtirok etgan ibora bilan ma'nodosh;
- 3) bir tilda qo'l somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa usulda ifadalanishi;
- 4) bir tilda qo'l somatizmi qatnashgan iboraning ikkinchi tilda yo'qligi [1].

T.S.Spirina maqolasida ingliz, rus va nemis tilidagi somatik frazeologizmlarni tahlil qilgan va "qo'l" leksemasiga alohida to'xtalib o'tilgan [10]. Italyan tilshunosi M.B.Papi ham ingliz va italyan tillarida "qo'l" leksemasining frazeologik va ko'chma ma'noda tahlil qilgan. Bunday frazeologik birliklar har ikkala tilda ham o'xshashligini va o'zi xos xususiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. U bir til doirasida ya'ni ingliz tilida "qo'l" va "oyoq" ishtirok etgan iboralarning AQSH va Buyuk Britaniya kompaniyalari reklamalarida qo'llanilishi tadqiq qilgan va o'zi xos xususiyatga ega ekanligini ta'kidlagan [3]. L.Manerko o'z maqolasida "idrok" va "tana" orasidagi aloqaning ingliz iboralarida o'z aksini topish masalasi ko'rib chiqilgan [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy chog'ishtirma, differentsial-semantik va komponentli tahlil, shuningdek, distributiv usullardan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ingliz va o'zbek tillarida ham somatik frazeologizmlar ko'plab ilmiy ishlar, maqolalar bor. Shuningdek ingliz va o'zbek tillaridagi tana a'zolari bilan bog'liq somatik frazeologizmlar muhim o'rin tutadi. Biz Ushbu maqolamizda Ingliz va o'zbek tillarida ikki somatik komponentli frazeologik birliklarning qo'llanilishini tahlil qilamiz. Ya'ni bir frazeologik iborada ikki tana a'zosi ishtirok etishini ko'rib chiqamiz.

Dastlab o'zbek tilida qo'llaniladigan bir ibora tarkibida insonning ikki tana a'zolari ishtiroki bilan ifodalovchi iboralarga misollar keltiramiz (bosh, oyoq, qo'l, bo'yin, tish, jag', qovoq, til, qosh kabi): Boshidan oyog'igacha, yelkama yelka turmoq, qo'lni qo'lga bermoq, ko'z ko'z qilmoq, bosh qosh bo'lmoq, qo'l oyoq bo'lmoq, ko'z quloq bo'lmoq, oyog'ini qo'lga



olmoq, ko`z qosh orasida bo`lmoq, qo`l oyoq bo`lmoq, ko`z quloq bo`lmoq, oyog`ini qo`liga olmoq, qovoq tumshuq qilmoq, og`zi qulog`ida bo`lmoq, og`iz burun o`pishmoq, jag`i jag`iga tegmay gapirmoq, bosh miyyasini yemoq, miyyasini qo`liga tutmoq, qosh ko`z suzmoq, ko`z qorachig`idek asramoq, qosh qavog`iga qaramoq, es xushini yo`qotmoq, kalla paychog`i bilan, tilini tishlamoq, butun tanasi quloqqa aylanmoq va shu kabi qator ikki somatik komponentli frazeologik birliklarni muloqotda va turli badiiy asarlarda uchratishimiz mumkin. Bu o`zbek tilining so`zga boy til ekanligidan dalolat beradi.

Ingliz tilida ham yuqorida ko`rib chiqilgani kabi bir frazeologik birlikda ikki somatik so`zlarning ishtirokini kuzatishimiz mumkin. Quyida misollar orqali ko`rib chiqamiz: Masalan, ingliz tilidagi *“Head or tail”* iborasi 1. Adekvat tarjimasi-“ bu tomoni yoki u tomoni”; so`zlashuv tilida *“chikka yoki pikka”* kabi iboralar orqali qo`llanilib, nutqiy vaziyatlarda tanlash imkoniyatini beradi. 2. Adekvat tarjimasi boshi yoki oxiri, u yoki bu narsa, so`zlashuvda - Masalan: *Something definite could not make head or tail of what he said had a real heart-to-heart and now she knows exactly how I feel about her. Be sympathetic. Think about other people's feelings, not just your own.*

“To have tooth and nails” iborasida *tooth* (tish) va *nail* (tirnoq) somatik so`zlari ishtirok etib, o`zbek tilida *“Tish tirnog`i bilan qarshi chiqmoq”* iborasiga muqobil keladi. Iboraning adekvat(muqobil) tarjimasi- *“qattiq kurashmoq, qarshi chiqmoq bo`lib, “butun vujudi, bor kuchi bilan butun imkoniyatlarini ishga solib kurashmoq degan ma`noni anglatadi. So`zlashuv tilida “ jon jahdi bilan kurashmoq “ kabi iboralar orqali qo`llaniladi. O`zbek frazeologizmida esa “ Tish tirnog`i bilan qarshi chiqmoq(qarshi turmoq, qarshi bo`lmoq)”, “ qat`iyat bilan qarshi kurashmoq “, “ butun imkoniyat bilan kurashmoq” kabi iboralar orqali qo`llaniladi. – Masalan: “Tish tirnog`im bilan shu yerda, shu bolalarning sevgan o`qituvchisi bo`lib qolishga tirishaman “ . [5] “I had to fight tooth and nails to reach my goal.”*

Ingliz tilida qo`llaniladigan *“All eyes and ears”* iborasi o`zbek tilidagi *“butun tanasi quloqqa aylanib tinglamoq”* iborasiga mos kelib, uning adekvat tarjimasi- diqqatli bo`lmoq. Masalan : *“The team was all eyes and ears as the coach explained the challenges ahead.”*(*“Murabbiy oldindagi qiyinchiliklarni tushintirayotganida jamoa uni diqqat bilan eshitishdi.”*)

Ingliz tilidagi *“ Tongue in cheek “* iborasi – o`zbek tilidagi og`zi qulog`ida iborasiga to`g`ri kelib, juda xursand ma`nosini beradi. Masalan: *Bugungi sayohatdan Asal buvining dilgirliги yozilib, og`zi qulog`ida bo`lib qaytda. H. Nazir, So`nmas chaqmoqlar.*

XULOSALAR. Ikki yoki undan ortiq tillarning frazeologik birliklarini o`rganishda ikki somatik komponentli frazeologizmlar muhim ahamiyatga ega. Ularni o`rganish va taqqoslash turli xalqlar madaniyati va urf odatlarining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Jahon va o'zbek tilshunoslar somatik frazealogiyalar haqida fikr yuritgan va bular ustida ilmiy ishlar olib borgan. Tadqiqotimizda ikki somatik komponentli frazeologik birliklar yordamida har bir xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini va insonning ruhiy va jismoniy holatlarini namoyon bo`lishini kuzatish mumkin. Ayniqsa badiiy asarlarda bo`yoqdorlik, takrorlanmaslik va rang-baranglikni ta`minlovchi metafora, o`xshatishlar, sifatlash, mubolag`a, maqol va hikmatli so`zlar bilan bir qatorda iboralar asar tilining xalqchil va ma`noli bo`lishiga xizmat qiladi.



References:

1. Abdurahmanova S. Processing of English idioms with body part components by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency. Thesis for the Doctor of Philosophy Degree. Istanbul, 2012, 142 pages.
2. Manerko L. From human body parts to the embodiment of spatial conceptualization in English idioms. The 4 th UK Cognitive Linguistics Conference. 2014, P. 195-213.
3. Papi M.B. Idiomatic and figurative uses of "hand" in English and "mano" in Italian: embodiment and cultural filters. Main Session Talks. Pisa, 2013.
4. Tanasi E.N. Arm and leg idioms in the BNC and Coca Corpora: views on the cultural differences between British and American society. International journal of Cognitive Research in Science, Engineering, and Education. Vol.2, N 1, 2014. Page 77-85.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati 2006-2008. 119-bet
6. Вакк Ф.О. соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке // Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. // Таллин, 1964. 98
7. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка // Дисс., , канд фил наук // -Т., 1976. 146 с.
8. Нассири М. Семантика фразеологический единиц с соматическим парным компонентом нога-рука. Вестник РУДН, №2. 2014. С. 67-71.
9. Усмонова Ш.Р. Узбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар..ф.ф. н. дисс. – Тошкент, 1998. 136 б.
10. Спирина Т.С. Фразеологические единицы английского, русского и немецкого языков, характеризующие власть, с компонентами -соматизмами. Лингвистика и перевод. №3 (41), 2013. – С. 133-139.